



*2024- yil yanvar-aprel oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel. (75) 221-44-28*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-aprel oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 391333,0 ming AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 211 736,9 ming AQSH dollariga yoki 2,2 martaga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 391333,0 **+2,2 m.**
(2023- y.: 179596,1)




Saldo

2024- y.: -59695,8
(2023- y.: 57058,9)




Eksport

2024- y.: 165818,6 **+40,1 %**
(2023- y.: 118327,5)



Import

2024- y.: 225514,4 **+3,7 m.**
(2023- y.: 61268,6)













Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 165818,6 ming AQSH dollariga (40,1% ga ko‘paydi) va import hajmi 225514,4 ming AQSH dollariga (3,7 martaga ko‘paydi). Hisobot davrida -59695,8 ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari)

XXR	Turkiya	Rossiya Federatsiyasi	AQSH	Pokiston
TSA – 139748,7	TSA– 34862,3	TSA – 32602,9	TSA – 24945,5	TSA – 16884,0
Eksport: 8671,9 Import: 131076,8	Eksport: 30158,1 Import: 4704,2	Eksport: 24515,5 Import: 8087,4	Eksport: 23426,5 Import: 1519,0	Eksport: 10777,9 Import: 6106,1
 35,7%	 8,9 %	 8,3 %	 6,4%	 4,3 %
BAA	Ekvador	Germaniya	Niderlandiya	Yaponiya
TSA – 16326,2	TSA – 16145,5	TSA – 15685,0	TSA – 14745,4	TSA – 8695,3
Eksport: 15765,3 Import: 560,9	Eksport: Import: 16145,5	Eksport: 118,3 Import: 15566,7	Eksport: 57,8 Import: 14687,6	Eksport: Import: 8695,3
 4,2 %	 4,1 %	 4,0 %	 3,8 %	 2,2 %











ViLOYat jahonning 68 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (35,7 %), Turkiyada (8,9%), Rossiya Federatsiyasida(8,3%), AQSHda (6,4%), Pokistonda (4,3 %), BAAda (4,2%), Ekvadorda (4,1%) va Germaniyada (4,0%) qayd etilgan.



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari)


	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	XXR	42470,5	23189,5	139748,7
	<i>Eksport</i>	10648,7	5044,2	8671,9
	<i>Import</i>	31821,8	18145,3	131076,8
	Rossiya Federatsiyasi	23394,1	20878,0	32602,9
	<i>Eksport</i>	13881,9	18554,6	24515,5
	<i>Import</i>	9512,2	7274,0	8087,4
	Turkiya	48694,5	43262,6	34862,6
	<i>Eksport</i>	37399,8	34613,3	30158,1
	<i>Import</i>	11294,7	8649,3	4704,5
	Niderlandiya	1016,7	426,7	14745,4
	<i>Eksport</i>	4,8	0,0	57,8
	<i>Import</i>	1007,1	426,7	1468,6
	Ekvador	1,9	141,6	16145,5
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	1,9	141,6	16145,5
	AQSH	405,6	778,2	24945,5
	<i>Eksport</i>	3,4	5,1	23426,5
	<i>Import</i>	402,2	773,1	1519,0
	Pokiston	3764,5	5665,8	16884,0
	<i>Eksport</i>	3584,7	4757,8	10777,9
	<i>Import</i>	179,8	908,0	6106,1
	Germaniya	7716,4	1511,3	15685,0
	<i>Eksport</i>	1019,7	108,5	118,3
	<i>Import</i>	6696,7	1402,8	15566,7
	BAA	687,4	16802,0	16326,2
	<i>Eksport</i>	606,1	16772,3	15765,3
	<i>Import</i>	81,3	29,7	560,9
	Misr	695,5	4267,4	8271,1
	<i>Eksport</i>	695,5	4251,5	8271,1
	<i>Import</i>	0,0	15,9	0,0

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Eron Islom Respublikasi	8636,0	2450,4	5592,6
	<i>Eksport</i>	5918,1	1786,7	4751,5
	<i>Import</i>	2717,9	663,7	841,1
	Polsha	4027,2	6936,8	5766,2
	<i>Eksport</i>	3099,4	6725,5	5634,7
	<i>Import</i>	927,8	211,3	131,5
	Tojikiston	2142,7	1773,0	4566,8
	<i>Eksport</i>	306,2	1477,2	4298,1
	<i>Import</i>	1836,5	295,8	268,7
	Qozog'iston	7794,9	11105,1	6357,0
	<i>Eksport</i>	2263,3	3909,4	4880,6
	<i>Import</i>	5531,6	7195,7	1476,4
	Hindiston	3154,7	4425,9	4716,3
	<i>Eksport</i>	1660,9	3627,1	944,5
	<i>Import</i>	1493,8	798,8	3771,8
	Yaponiya	3499,1	1009,4	8695,3
	<i>Eksport</i>	161,5	0,0	0,0
	<i>Import</i>	3337,6	1009,4	8695,3
	Litva	214,4	8,0	2123,5
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	270,1
	<i>Import</i>	214,4	8,0	1853,4
	Vetnam	576,7	4224,2	2633,4
	<i>Eksport</i>	576,6	4161,9	2563,6
	<i>Import</i>	0,1	62,3	69,8
	Kanada	197,2	487,1	1656,7
	<i>Eksport</i>	2263,3	0,0	284,3
	<i>Import</i>	5531,6	487,1	1452,0
	Bangladesh	0,0	551,5	2141,3
	<i>Eksport</i>	0,0	551,5	2141,3
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0

QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-aprel oylari ming AQSH doll.)*

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari




ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushini Qarshi shahri 33,2 % ulush bilan 129848,9 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushini esa Chiroqchi tumani 0,4 % ulush bilan 1407,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 12,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-aprel oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,6 martaga ko'paygan va jami TSA'dagi ulushi 87,1 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-aprel oylari holatiga ko'ra, 50335,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 37642,1 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 12693,5 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)

Rossiya – 64,8



Qozog'iston – 12,6



Tojikiston – 9,1



Ozarbajjon – 1,7



Ukraina – 1,7



Moldova
Respublikasi – 1,9



Qirg'iz
Respublikasi – 4,6



Turkmaniston – 0,9



Belarus
Respublikasi – 2,6




Armaniston – 0,1



Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (64,8 %), Qozog'iston (12,6 %) hamda Tojikiston (9,1 %) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 50335,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 37642,1 ming AQSH dollari, import hajmi esa 23693,5 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-aprel oylari)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 128 taga yetdi va ular tomonidan 165818,6 ming AQSH dollari qiymatini hamda (2023- yilning mos davriga nisbatan 40,1 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-aprel oylari ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-aprel oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	85774,3	121704,6	116,9	141,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9470,3	11808,4	121,9	124,7	11,0	9,7
Ichimliklar va tamaki	6,7	49,1	21,3	7,3 m.	-	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xom ashyo materiallari	9008,9	5560,4	154,7	61,7	10,5	4,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9344,5	31713,6	95,6	3,4 m.	10,9	26,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	247,9	150,7	54,0	60,8	0,3	0,1
Sanoat tovarlari	52947,2	65147,1	115,5	123,0	61,7	53,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	758,3	694,5	119,3	91,6	0,9	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	2907,9	5796,2	2,7 m.	199,3	3,4	4,8
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	1082,6	784,6	91,2	72,5	1,3	0,6

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (53,5 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (26,1 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-aprel oylari)



XSST bo'limi nomi

**Ming
AQSH
dollari**

**2023- yilning
mos davriga
nisbatan,
% da**

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar

18304,5

121,3

Sabzavotlar va mevalar

14985,0

146,8

Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari

7276,9

61,6

To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari

5370,3

83,2

O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo

910,1

64,7

Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari

948,4

25,8

Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar

48,2

17,9

Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar

45995,1

2,8 m.

Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar

45995,1

2,8 m.


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	85937,3	124,1
Yigirilgan to'qimachilik iplari, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	85911,2	124,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	3,6	1,5
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	22,5	5,0 m.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	894,4	35,3
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	894,2	35,3
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	0,2	78,5
Turli xil tayyor buyumlar	6398,8	151,2
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	6390,2	151,0
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	8,6	-
Xizmatlar	1087,9	76,5


O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,5 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-aprel oylari ming AQSH dollari, ulushi, % da)



 **■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari**
2024- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Pokiston, AQSH, BAA va Misr kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 73,3 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel oylari % da)






QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Turkiya	34613,3	30158,1	92,5	87,1	1	1
Rossiya Federatsiyasi	18554,6	24515,5	133,7	132,1	2	2
Amerika Qo'shma Shtatlari	5,1	23426,5	-	4593,4 m.	34	3
XXR	5044,2	8671,9	47,4	171,9	5	6
Pokiston	4757,8	10777,9	132,7	226,5	6	5
Birlashgan Arab Amirligi	16772,3	15765,3	27,7 m.	94,0	3	4
Misr	4251,5	8271,1	6,1 m.	194,5	7	7
Eron Islom Respublikasi	1786,7	4751,5	30,2	2,7 m.	13	10
Polsha	6725,5	5634,7	2,2 m.	83,8	4	8
Tojikiston	1477,2	4298,1	4,8 m.	2,9 m.	14	11
Vetnam	4161,9	2563,6	7,2 m.	61,6	8	14
Qozog'iston	3909,4	4880,6	172,7	124,8	9	9
Bangladesh	551,5	2141,3	-	3,9 m.	21	16
Afg'oniston	1850,4	3372,1	23,2	182,2	12	13
Portugaliya	227,6	3813,7	-	16,8 m.	26	12
Marokash	1355,3	2130,5	-	157,2	15	17
Ozarbajon	684,3	812,7	75,5	118,8	17	22
Moldova Respublikasi	839,8	972,1	63,9	115,8	16	19
Hindiston	3627,1	944,5	2,2 m.	26,0	10	20
Ruminiya	0,0	2297,6	-	-	-	15



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-aprel oylari ming AQSH doll.)*



ViLOYAT EKSPORTI tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 27,5 % bilan 45658,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Dehqonobod tumani 0,6 % bilan 940,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-aprel oylarida 32,2 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,7 martaga ko'paydi.









Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (36,1%), Qozog'iston (26,1 %), Rossiya (17,9 %) hamda Afg'oniston (15,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 14,7 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 46,2 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 8,8 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-aprel oylari o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Piyoz</p> <p>4,1 mln. AQSH dollari</p> <p>15,3 ming tonna</p> <p> 21,9 m. ↑</p>	<p>Karam</p> <p>3,1 mln. AQSH dollari</p> <p>9,6 ming tonna</p> <p> 6,4 m. ↑</p>	<p>Loviya</p> <p>4,2 mln. AQSH dollari</p> <p>1,1 ming tonna</p> <p> 47,8 % ↑</p>	<p>Uzum</p> <p>0,6 mln. AQSH dollari</p> <p>0,3 ming tonna</p> <p> 27,2 % ↓</p>
<p>Pomidor</p> <p>0,4 mln. AQSH dollari</p> <p>0,2 ming tonna</p> <p> 33,3 % ↓</p>	<p>Sabzi</p> <p>0,3 mln. AQSH dollari</p> <p>1,6 ming tonna</p> <p> 2,7 m. ↑</p>	<p>Bodring</p> <p>0,1 mln. AQSH dollari</p> <p>0,1 ming tonna</p> <p> 50,0 % ↓</p>	<p>Sitrus mevalar</p> <p>0,1 mln. AQSH dollari</p> <p>0,03 ming tonna</p> <p> 30,0 % ↓</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-aprel oylari)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	11,7	5291,2	36,1
 Rossiya	2,4	2626,8	17,9
 Afg'oniston	2,3	2319,0	15,8
 Qozog'iston	13,9	3821,8	26,1
 Iroq	0,8	328,3	2,2
 BAA	0,1	33,5	0,2
 Turkiya	0,02	15,4	0,1
 Boshqa davlatlar	0,9	217,2	1,6

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-aprel oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokiston davlatiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 36,1 % ni), bu ko'rsatkich Turkiya eksport hajmidan 343,6 barobar ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.






To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-aprel oylari yakuni bo‘yicha 9602,8 ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 5,8 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 120,1 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (66,6 %), ipak,paxta,jundan tayyorlangan matolar (31,1 %) asosiy ulushni egallagan.




TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-aprel oylari ming AQSH dollari)

	2023-y.	2024-y.
 Kiyim-kechak	4229,1	6392,0
 Sintetik, jun tolalar	-	-
 Ipak, paxta, jundan tayyorlangan matolar	3734,4	2984,6
 Sintetik ip kalava	34,4	226,2
 Paypoq mahsulotlari	-	-

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-aprel oylari ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 1087,9 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,7 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 23,5 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (67,6 %), boshqa xizmatlar (31,8 %) va safarlar (turizm) (0,6 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 225514,4 ming AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,7 martaga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (70,8 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (12,1 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,0 %) hamda hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-aprel oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 164246,0 ming AQSH dollariga ko'paydi va 225514,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-aprel oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	61268,6	225514,4	67,0	3,7 m.	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsu- lotlari va tirik hayvonlar	5057,4	27105,8	92,8	5,4 m.	8,5	12,0
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari	3028,6	4991,7	83,6	164,8	4,9	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash Materiallar	3259,2	2074,4	113,9	63,6	5,3	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash Mahsulotlar	9551,2	27251,8	83,4	2,9 m.	15,7	12,1
Sanoat tovarlari	5461,5	4005,3	55,2	73,3	8,9	1,8
Mashinalar va transport asbob uskunalari	34611,7	159932,0	59,5	4,6 m.	56,6	71,0
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	-	-
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	299,0	153,4	-	51,3	0,1	-



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-aprel oylari)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28363,3	5,4 m.
Sabzavotlar va mevalar	25495,7	18,9 m.
Tirik hayvonlar	1584,3	80,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1034,1	63,1
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	223,8	134,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	15,9	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	9,5	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari	670,7	28,3
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	277,8	16,0
Probka va yog'och-taxtalar	313,0	81,3
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	56,4	23,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	23,6	3,4 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2059,9	63,4
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1989,6	136,1
Tabiiy yoki sun'iy gaz	70,3	3,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	24330,3	3,1 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	17985,0	10,4 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	4046,1	3,2 m.
Organik kimyo moddalari	1232,7	57,9
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	583,5	166,0
Noorganik kimyo moddalari	249,0	35,1 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	4,1	10,2
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	80,0	13,7
Bo'yovchi va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	99,2	2,5 m.


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	8378,9	119,7
Cho'yan va po'lat	1015,8	74,9
Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	5051,9	197,0
Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlar	805,4	2,4 m.
Rangli metallar	354,4	85,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	50,7	24,7
Ruda bulmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	568,0	44,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	480,9	150,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	51,8	44,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	106116,3	3,6 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	60343,3	4,1 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	22716,9	6,6 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	12366,0	178,4
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	3338,6	156,6
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	3524,1	49,9 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	2393,3	2,3 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	762,4	98,8
Metallarni qayta ishlash mashinalari	670,3	2,4 m.
Boshqa transport uskunolari	1,4	-
Turli xil tayyor buyumlar	3201,3	159,6
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2407,4	2,5 m.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	67,9	2,9 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	577,6	61,7
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebellar	40,9	158,5

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.


 2024- yil yanvar-aprel oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 5,6 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 28,3 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel oylari ming AQSH dollari, ulushi % da)




■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

 2024- yil yanvar-aprel oylarida Qashqadaryo viloyati 51 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Niderlandiya, XXR, Ekvador, Germaniya, Pokiston, Rossiya Federatsiyasi, va Yaponiya) jami importning 88,9 % ni tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel oylari % da)






QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yillar kesimida yanvar-aprel oylari holati)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	18145,3	131076,8	57,0	7,2 m.	1	1
Niderlandiya	426,7	14687,6	47,8	34,4 m.	20	4
Ekvador	141,6	16145,5	70,4	114,0 m.	24	2
Germaniya	1402,8	15566,7	20,9	11,1m.	9	3
Rossiya Federatsiyasi	7274,0	8087,4	76,4	111,2	3	6
Pokiston	908,0	6106,1	5,1 m.	6,7 m.	13	7
Turkiya	8649,3	4704,5	76,6	54,4	2	8
Yaponiya	1009,4	8695,3	30,2	8,6 m.	11	5
Litva	2006,6	1853,4	9,4 m.	92,3	6	11
Hindiston	798,8	3771,8	53,4	4,7 m.	14	9
Kanada	487,1	1452,0	99,6	3,0 m.	19	14
Qozog'iston	7195,7	1476,4	130,1	20,5	4	13
Eron Islom Respublikasi	663,7	841,1	24,4	126,7	16	17
Fransiya	487,3	732,8	2,6 m.	150,4	18	18
Qirg'iz Respublikasi	1723,1	2168,2	78,8	130,4	8	10
Amerika Qo'shma Shtatlari	773,1	1519,0	192,2	196,5	15	12
Birlashgan Arab Amirligi	29,7	560,9	36,5	18,9 m.	36	20
Qo'shma Qirollik	69,7	294,0	-	4,2 m.	28	24
Finlandiya	1,2	243,6	-	-	47	27
Italiya	1000,9	893,8	82,7	89,3	12	16



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-aprel oylari ming AQSH dollari)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 54,0 % bilan 121718,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mirishkor tumani 0,1 % bilan 138,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-aprel oylari ming AQSH dollarida)




2024- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 153,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (100,0 %) bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 30490,0 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 martaga ko'paydi hamda, importning umumiy hajmidagi ulushi 18,4 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-aprel oylari ulushi, % da)

523,6 ming
AQSH doll.
ulushi – 1,7 %

3730,9 ming
AQSH doll.
ulushi – 12,2 %

7078,2 ming
AQSH doll.
ulushi – 23,2 %



Turkiya



Rossiya
Federatsiyasi



XXR

906,2 ming
AQSH doll.
ulushi – 3,0 %

575,9 ming
AQSH doll.
ulushi – 1,9 %



Yaponiya



Eron



2024- yil yanvar-aprel oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19925,9 ming AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR- 7078,2 ming AQSH dollari (23,2 %), Rossiya Federatsiyasi- 3730,9 ming AQSH dollari (12,2 %) va AQSH- 906,2 ming AQSH dollari (3,0 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.